




LUG'ATDA SEMANTIK MAYDON YARATISH

Masharipova Bibixonim Quvondiq qizi

Mamun Universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili talabasi

Ilmiy rahbar: Bekchanova Nazokat Allanazar qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17231266>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-sentabr 2025 yil
Ma'qullandi: 23-sentabr 2025 yil
Nashr qilindi: 30-sentabr 2025 yil

KEY WORDS

semantik maydon, tushuncha maydoni

ABSTRACT

Semantik maydon - bu tildagi barcha tushunchalarni qamrab olgan holda ularning ma'nolarini birlashtiradigan soha. Ushbu sohaga kiritilgan barcha so'zlar bir xil tushunchaga tegishli bo'lsa-da, ular turli xil nuanslarga va kontekstlarda turli xil foydalanishga ega bo'lishi mumkin. Ushbu maqola semantik maydonning kelib chiqish tarixi va lug'atda semantik maydon yaratish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Kirish

Tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri — bu semantika, ya'ni so'z va iboralarining ma'nosini o'rganadigan sohasi hisoblanadi. Semantik tadqiqotlarda lug'at boyligining tartibga solinishi, so'zlarning o'zaro munosabati va ma'no aloqalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday nazariyalardan biri — semantik maydon nazariyasi bo'lib, u so'zlarning ma'no jihatdan bir-biriga yaqin, bir umumiy kategoriya ostida birlashtiradi. Masalan, Muhammad Yusuf o'zining "Vatanim" she'rida Vatan tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritib berish uchun yorug' jahon, taxti Sulaymon, yagonam, koshona, ulug'im, singlim, onam, hamxonam, mehri iliq, Mashrab, tumor, Navoiy, Yassaviy, qo'riq, Xo'jand, Muqanna, cho'pon, cho'liq, to'qson olti urug', so'liq, zamin, kun, duduq, quduq, chinor, tumor kabi so'zlarni qo'llagan. Bu so'zlarning barchasi "vatan" so'zining turli xil xususiyatlari, munosabatlari va ishlatilishini anglatadi. Ma'lum bir arxixema asosida birlashuvchi so'z va iboralar majmuiga semantik yoki tushuncha maydoni deyiladi.

Semantik maydon nazaryasining kelib chiqishi. "Semantik maydon" tushunchasi, xuddi "Semantik ramka" tushunchasi kabi, semantik tadqiqotlarning yangi sohalarini ochdi. Birinchi navbatda 1930-yillarda Germaniyada, keyin esa 1970-yillarda AQSHda boshlandi

Semantik maydon tushunchasi ilk bor nemis tilshunosligida XX asr boshlarida J. Trier tomonidan fanga kiritilgan. Uning nazaryasi semantika tarixida yangi bosqich sifatida qaraladi. Uning shu yillar ichida bir necha asar va maqolalari chop etildi. U bunda "tushuncha maydoni" dan kelib chiqib fikr yuritdi. U o'zining ilmiy izlanishlarida tilning lug'ati tartibsiz so'zlar yig'ndisi emas, balki mazmun jihatidan bog'langan va o'zaro munosabatda bo'lgan so'zlar tizimi ekanini ta'kidlaydi. Bu so'zlar bir birini to'ldiradi va ma'nosini aniqlaydi. Trierning semantik maydon nazariyasini quyidagicha umumlashtirgan:

1. Til tizimidagi lug'at semantik jihatdan bog'liq bo'lib, to'liq leksik tizimni tashkil qiladi. Ushbu tizim barqaror emas va doimiy ravishda o'zgarib turadi. Masalan, texnologiya maydonida: telefon-uyali telefon-smartfon.

2. Tilning so'z boyligi semantik jihatdan bog'liq bo'lgani uchun biz alohida so'zlarning semantik o'zgarishini alohida o'rganishimiz kerak emas, balki lug'atni yaxlit tizim sifatida o'rganishimiz kerak. Masalan, bilim, idrok, tafakkur, tushuncha kabi so'zlar bir semantik maydonni tashkil qiladi.

3. Leksemalar ma'no jihatdan o'zaro bog'liq bo'lganligi uchun so'zning boshqa so'zlar bilan semantik munosabatini tahlil qilish va solishtirish orqaligina aniqlaymiz. So'z faqat o'z semantik sohasidagina ma'noli bo'ladi. Masalan, yahshi so'zining ma'nosi yomon bilan taqqoslangan to'liq tushuniladi.

4. Trier lug'atni ma'no doiralarga ajratishni taklif qildi: ranglar, qarindoshlik, kasblar, hissiyotlar va hokazo.

Trierning vatandoshi bo'lmish Leo Weisgerber uning g'oyalarini davom ettirdi. Uning fikricha til obyektiv borliq bilan kishilik ongi o'rtasidagi oralik olamdir va til lug'ati xalq tafakkurinni aks ettiradi. Shuning uchun, turli xalqlar tashqi obyektiv borliqni turli til vositasida turlicha tushuntiradilar. So'z ma'nosi shu so'zning qaysi so'zlar guruhiga kirishi, ya'ni qaysi maydonda ekanligiga qarab belgilanadi.

Trier semantik maydon nazaryasining asoschisi bo'lsa, S.Shchur bu g'oyani rus tilshunosligi doirasida rivojlantirgan olimlardan biri. U bu sohada eng ko'p xizmat qilgan olimlardan xisoblanadi. Uning 70 ga yaqin ilmiy ishlari e'lon qilingan bo'lib, asarlarining ko'pchiligi lingvistikadagi semantik maydonlar nazaryasiga bag'ishlagan. Bu sohada u tilning barcha sohalaridagi semantik maydon nazaryasini taxlil etib beradi. Uning ayniqsa, semantika, semantik taraqqiyoti doirasidagi maydon nazaryasi qimmatli hisoblanadi. Shchur maydonlarning qattiq chegaralarga ega emasligini, ular bir-biriga o'tib ketishini ko'rsatgan. Masalan, tabiat hodisalari va ob-havo maydonlari bir-biriga yaqinlashadi va ko'pincha kesishadi.

Semantik maydon nazariyasining O'zbek tilshunosligiga kirib kelishi. Semantik maydon nazariyasi dastlab G'arb va Rus tilshunosligi orqali o'zbek tilshunosligiga kirib kelgan. O'tgan asrning 80-yillariga kelib ham hali semantik maydonlarni tadqiq etish boshlanmagan edi. Faqat ma'lum semantik maydonga so'zlarni ajratib olib, keyin unga semasiologiyani boshqa yo'nalishlarida yondashish bo'lgan. Semantik maydonlarini lingvistik-semantik asosda o'rganish o'tgan asrning 90-yillaridan o'zbek tilshunosligiga keng ko'lamda kirib kela boshladi. Bunga R.Rasulovning xolat fe'llariga, Sh.M.Iskandarovning otlardagi shaxs mikromaydoniga S.X.Muhamedovning harakat fe'llari semantikasiga, X.Tojimatovning sifat semantikasiga bag'ishlangan dissertatsiyasini ko'rsatish mumkin. Semantik maydon nazariyasi va uning birliklarining semantik xususiyatlarini o'rgangan S.G.Shafikov maydonning oltita umumiy xususiyatini quyidagicha ko'rsatadi: 1) elementlarning o'zaro aloqasi; 2) elementlar orasidagi muntazam aloqaning xarakteri; 3) elementning qo'shni elementlarga munosabatiga bog'liq holda har bir elementning ahamiyati; 4) barcha tillar uchun yagona, aslini olganda umumiy bo'lgan ekvivalent maydon asosida yotuvchi semantik struktura xarakteri; 5) har bir tilda tarixiy shartlangan aniq maydonning mavjudligi; 6) har bir tilda hosil bo'lgan ekvivalent maydonda paydo bo'lgan semantik strukturaning madaniy-lisoniy o'ziga xosligi.

Semantik maydon yaratish bosqichlari. Semantik maydonni shakillatirish bir necha bosqichlardan iborat:

1. Ma'lum bir soha yoki mavzu tanlanadi. Masalan, hayvonlar ranglar oila azolari va hokazo.
2. Shu mavzuga oid barcha so'zlar to'planadi.

3. So'zlar umumiy va farqli belgilari bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Masalan, hayvonlar ichida uy hayvonlari: mushuk, sigir, it. Parrandalar: o'rdak, tovuq, g'oz. Yovvoyi hayvonlar: sher, bo'ri, tulki, ayik kabi kichik guruhlar tuziladi.
4. So'zlar o'rtasida sinonimik, antonimik, giperonimik-giponimik yoki tematik munosabatlar aniqlanadi
5. Maydon ko'rgazmali tarzda diagramma, jadval yoki daraxt shaklida ko'rsatiladi.
6. Har bir guruhdagi so'zlarning qo'llanishi doirasi, uslubiy yoki ma'no farqlari tushuntiriladi.

Semantik maydon turlari. Tilshunoslikda 7ta asosiy semantik maydon turlari mavjud:

- Sinonimik maydon: go'zal – chiroyli- dilbar
- Antonimik maydon: katta – kichik, issiq – sovuq
- Giperonimik-giponimik maydon: meva → olma, nok, anor
- Tematik maydon: kasblar: o'qituvchi, shifokor, tadbirkor
- Paradigmatik maydon: ranglar; qizil ko'k sariq
- Syntagmatik maydon: qizil ruchka, qizil ko'ylak, qizil rang
- Konseptual maydon: ona → ona tili, ona vatan, ona yer.

Xulosa

Semantik maydon nazariyasi tilshunoslikda katta ahamiyatga ega bo'lib lug'at boyligining ichki tizimini anglash imkoniyatini yaratadi. U dasrtlab Jost Trier tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik boshqa olimlar tomonida rivojlantirilgan.

Semantik maydon yaratish bosqichlari – mavzuni tanlash, so'zlarni yig'ish, semantik belgilar asosida tartiblash, ma'no munosabatlarini aniqlash va tuzilmaviy jadval yoki chizma ko'rinishida ifodalash – tilshunoslik tadqiqotlarida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, sinonimik, antonimik, giperonimik-giponimik, tematik, paradigmatic, sintagmatik va konseptual maydonlarning turlicha tasnifi lug'at boyligini har tomonlama o'rganishga imkon beradi. Bu nazariya tilshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega: lug'at tuzishda, tarjimada, til o'qitishda va lingvokulturologik tadqiqotlarda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.M.Mirtojiyev .O'zbek tili semasiologiyasi. Mumtoz so'z, 2010.Toshkent
2. Trier, J. Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes. – Heidelberg, 1931.
3. Brigitte Nerlich, David D. Clarke. Semantic fields and frames: Historical explorations of the interface between language, action, and cognition. Journal of Pragmatics-2000